

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**MS**  
**2022**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

Nargiza RAFIYEVA. O‘zbek kitobot va miniatura san’ati .....	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish .....	129
Baxrom MADRIMOV. O‘quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash ....	132
Sanoqul DO‘STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO‘ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyati .....	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi islohotlarida musiqa madaniyati .....	143
To‘xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati .....	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san’ati orqali tarbiyalash yo‘llari .....	149
Ilhom QO‘SHAYEV. An’anaviy musiqiy merosni o‘rganishni metodik takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmuni .....	152
Ibrohim KAYUMOV. San’atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati .....	154
Sadritdin GULOV. O‘zbekiston maktablarida musiqa cholg‘ulariga yo‘naltirishning zamonaviy ilg‘or innovatsiyalari.....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)	159
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta‘limni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению .....	163
To‘lqinjon Muxamedov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish .....	167
O‘g‘iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O‘n ikki maqom tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari ..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. “Shashmaqom” nasr (ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balarini) o‘rgatish yo‘llari.....	171
Olimxo‘ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to‘garaklarida o‘quvchilarni skripka cholg‘u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma‘rifat UMUROVA. Maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе .....	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO‘SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo‘llari.....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования “Изобразительное искусство и инженерная графика”.....	193
Olimxo‘ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O‘quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish .....	195
Olimxo‘ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo‘shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O‘zbek musiqa san’atining qadimiy ildizlari tarixidan .....	200
Abror AZIMOV. Zardushtiy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san’at tarixi va turlari .....	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug‘diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO‘ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarini shashmaqomning nasr bo‘limi vositasida axloqiy estetik tarbiyalash.....	206
Sanoqul DO‘STOV, Zilola RUZIYEVA. O‘quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg‘usining o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati .....	208
Mehriniso Begmurodova. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi ma‘naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o‘rni .....	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o‘quvchilar estetik tarbiya vositasi.....	214
Uchqun BOLIYEV. Ma‘naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish .....	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari .....	219
Adilshoda TO‘YMURODOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchining ijodkorligi .....	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini folklor qo‘shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo‘shig‘ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo‘shiqlarining maktab darsliklaridagi o‘rni .....	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati .....	233

**O'g'iloy RAMAZONOVA**

Musiqqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

**Ferangiz ODILOVA**Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi**O'N IKKI MAQOM TIZIMI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Maqolada maqomlar xalq musiqasi qomusi ekanligi, maqom so'zi kuylarning lad hamda tonallik tushunchalari bilan bog'liqligi, maqomlarning nazariy masalalari qayta ishlab chiqilganligi, "O'n ikki maqom" tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** maqom, Shashmaqom, "O'n ikki maqom", sho'ba, ovoza, doira usuli, lad, xonanda, sozanda.

*В статье разъясняется, что макамы являются энциклопедией народной музыки, слово маком связано с понятиями мелодии и тона, переработаны теоретические вопросы макамов, система "Двенадцати макамов" и ее особенности.*

**Ключевые слова:** маком, Шахмаком, "Двенадцать макамов", ветвь, голос, метод дойры, отрок, певец, музыкант.

*The article explains that maqoms are an encyclopedia of folk music, the word maqom is associated with the concepts of melody and tone, the theoretical questions of maqoms, the system of "Twelve maqoms" and its features are reworked.*

**Key words:** makom, Shashmakom, "Twelve makoms", branch, voice, doira method, lad, singer, musician.

**Kirish.** Maqomlar ko'pchilik Sharq xalqlari musiqasi merosida mavjud. Ular shu xalqlar milliy musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlar nazariy va amaliy asoslarga ega bo'lib, mazkur xalqlar musiqasi san'atining ustozona uslubidagi namunasidir. Maqomlar, xususan, o'zbek va tojik xalqlarining ma'naviy mulki bolmish, Shashmaqom ko'p asrlar davomida bu sohada olib borilgan ijodiy izlanishlarning samarasidir. Ustoz sozanda va xonandalar maqomlarni keyingi avlodlarga ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, bizgacha yetkazgan. Maqom namunalari hozirgi kunda narxat dunyosidagi eng zo'r, beqiyos qiymatga ega bo'lgan musiqasi san'atining boyliklari sifatida chinakkam xalq mulkiga aylandi.

**Asosiy qism.** Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, o'tmish bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Keng ma'noda esa maqomlar xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan, Shashmaqomda, O'zbek xalqi musiqasi xos ohanglar ritmik xususiyatlar, doira usullari, she'riyat xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z ifodasini topgan, shu sababli, hozirda maqom masalalarini o'rganishga, maqom ijrochiligidagi uslublarni aniqlash va o'zlashtirish ishiga jiddiy ahamiyat bermoqda.

Maqom nima? Maqom arabcha "joy", "o'rin" musiqasi istilohida esa cholg'ular hosil etiladigan joy, ya'ni parda ma'nosini bildiradi. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad-tonallikni hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi. "G'iyosul-lug'at" izohli qomusining muallifi Muhammad G'iyosuddin o'tmish va zamondosh olimlarining mulohazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflagan: "Maqom-pardai surudro go'yand", ya'ni Maqom deb, kuy va ashulalar pardasiga aytiladi. Bu yerda kuy va ashulalar boshlanadigan parda hamda ular harakat etadigan lad tovush qatorlari hisobga olingan, albatta.

Maqom so'zi kuylarning lad hamda tonallik tushunchalari bilan bog'liq ekan, ularning yuzaga kelish tarixi qadim zamonlarga, kasbiy musiqasi paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiqasi boyliklari zahirida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan. Lekin maqom atamasi Sharq xalqlari musiqasida taxminan IX asrlardan qo'llana boshlagan. Chunki, VIII-X asrlarda yunon olimlari, ayniqsa Yevklid (Uklidis), Pifagor (Fisog'urs), Aristotel (Arastu) kabi olimlarning musiqasi nazariyasiga bag'ishlangan asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozila boshlandi. Maqomlarning nazariy masalalari qayta ishlab chiqildi. Ammo bundan "arab va boshqa Sharq xalqlarida IX asrgacha musiqasi nazariyasi bo'lmagan" - degan xulosa chiqarish yaramaydi. Yaxyo bin Ali Yahyo Abu Mansur (vaf. 912-y.)ning musiqaga doir asarida arab va boshqa musulmon Sharq xalqlarida yunon musiqasi nazariyasi ta'sir ko'rsatmasdan ancha burun yerli xalqlarning o'z musiqasi nazariyasi mavjud bo'lgani haqida so'z yuritiladi. Lekin, Beruniyning yozishicha, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy yozma obidalari arab istilosi davrida bosqinchilar tomonidan yoqib, yo'qotilib yuborilgan edi. Shu sababli bevosita musiqaga doir madaniy yodgorliklar ham bizgacha yetib kelmagan.

XIX asming 70-yillariga kelib, Xorazm maqomlarini to'la qog'ozga tushirish yo'llarini kashf qilganliklari, bu qilingan ish tarixga Xorazm Tanbur chizig'i nomi bilan kirganligi, Shashmaqom bizgacha udum sifatida yetib kelgan. Xiva xonlarining Qo'ng'iroq sulolasi davrida xonlarning musiqaga bo'lgan ijobiy munosabatlari, XIX asr boshlarida Niyozjonxo'ja Buxoroga borib, Shashmaqom ilmini o'rganib, Xorazmda joriy qilishga harakat qilgan. Xorazm maqomlari bu davrlarda yuksalgani va yangi tartibda tizilgani, bu jarayon Muhammad Rahimxon Feruz davriga kelib o'z cho'qqisiga ko'tarilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjuddir.

**Muhokoma va natijalar.** Musiqaga doir eski manbaalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy, nazariy va amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan al-Kindiy, Farobiy, al-Xorazmiy, ibn Sino, al-Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy, Husayniy, Kavkabiyy, Darvishali Changiy singari buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlar berilgan. Shuni qayd etish lozimki, musiqa nazariyasi hamma Sharq xalqlarida, ba'zi tafovutlarni hisobga olmaganda, deyarli bir xil mazmunda bo'lgan. Hatto maqomlar, sho'balarning nomi ham o'xshash edi. Lekin, ularning kuy-ohanglari o'ziga xos bo'lib, bir-biridan tubdan farq etgan. O'tmishdagi musiqiy-nazariy risolalarda "O'n ikki maqom" ("Duvozdah maqom") tizimi va unga kirgan 24 sho'ba 6 ovoza haqida mulohaza yuritiladi. Hozirda ba'zi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'lib kelayotgan bir qancha jumboqlar bor. Masalan: "O'n ikki maqom" Markaziy Osiyoda paydo bo'lganmi? Uning kuy va ashula yo'llari bu yerda ijro etilganmi? "O'n ikki maqom"ning Shashmaqomga qamday aloqasi bor?, va h.k.

Ma'lumki, Amir Temur davridan boshlab to XVIII asrgacha yaratilgan musiqiy risolalarda, adabiy, tarixiy va badiiy manbaalarda maqomlar ustida ish olib borgan sozanda, bastakorlar, ular yaratgan kuy va ashulalar nomlari keltiriladi, ularning qaysi maqomga tegishli ekani, doira usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa risolalarida keltirilgan "O'n ikki maqom"ning lad asosi olti maqomdagi shakliga deyarli mos keladi yoki ular juda yaqindir.

XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan musiqa olimlaridan Najmiddin Kavkabiyy va Darvishali Changiy risolalarida Buxoro xonligi davrida joriy etilgan "O'n ikki maqom" hamda ular asosida kuy va ashulalar bastalagan san'atkorlar haqida ma'lumotlar bor. Demak, bundan "O'n ikki maqom" Markaziy Osiyoda XVII asrda ham qo'llanilgan, - degan xulosaga kelishi mumkin. Maqomlarning dastlabki namunalari Sharqda hozirgidek nota yozuvi bo'lmagani uchun bizgacha yetib kelmagan. Shuning uchun ularni endilikda Shashmaqom kuylari asosida tasavvur etishimiz mumkin.

"O'n ikki maqom"ning Shashmaqomga munosabati masalasiga kelsak, ulardagi maqom va sho'balarning nomi ko'pincha bir xil. Bu esa "O'n ikki maqom"dagi ayrim maqom va sho'balarning olti maqomga birlashtirilib, yaxlit turkum holiga keltirilganidan darak beradi. Shashmaqom tarkibida avvalgi tizimdagi nomlar uchrashini hisobga olib, bu yerda "O'n ikki maqom" va ularning tuzilmalarini sanab o'tamiz. "O'n ikki maqom" tizimini quyidagi maqomlar hamda ularning tarkibiy qismlari sanalmish sho'ba va ovozlarning tashkil etadi:

**MAQOMLAR:**

- |             |             |               |
|-------------|-------------|---------------|
| 1. Ushhshoq | 5. Husayniy | 9. Iroq       |
| 2. Navo     | 6. Hijoz    | 10. Isfaxon   |
| 3. Busalik  | 7. Rohaviy  | 11. Zirafkand |
| 4. Rost     | 8. Zangula  | 12. Buzurg    |

**Xulosa** qilib aytganda, maqom namunalari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng zo'r, beqiyos qiymatga ega bo'lgan musiqa san'atining boyliklari sifatida chinakkam xalq mulkiga aylandi. Maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiqa boyliklari zahirida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan.

Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, o'tmish bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Bugungi kunda yosh avlod vakillari, talaba yoshlarimizga maqomlarimizning asl ijrosi va uning noyob namunalari kelajak avlod vakillariga to'laligicha yetkazish va ular ongiga singdirish bizlarning muqaddas vazifamizdir.

**Adabiyotlar**

1. Ramazonova O'g'iloy. An'anaviy xonandalik va hofizlik san'ati. "Pedagogik mahorat" Maxsus son. 2021. 38-40-b.
2. UR Kholmurodovna. FORMATION OF PUBLICISTIC PERFORMING SKILING IN SINGING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01),36-40, 2021.
3. D.Yu. Ruziev. Ways Of Working ON Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (01),436- 440, 2021.
4. Ro'ziyev D.Y. Musiqiy ijrochilik mahorati. "Pedagogik mahorat", 6-son, 2019. 260-263-b.